



KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI NUTQI RIVOJLANMAGAN BOLALARNI YOZMA NUTQGA TAYYORGARLIGINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Mannonova Zohidaxon Olimjon qizi

Annotatsiya

Maqola orqali kichik maktab yoshidagi nutqi rivojlanmagan bolalarni yozma nutqga tayyorgarligini shakllantirishga oid tavsiyalar, yozma nutqning funktsional negizini yaratishga yo'naltirilgan ish tizimi hamda yo'nalishlari va yozma nutq nuqsonlarini oldini olish shuningdek yozma nutqni tez, samarali o'zlashtirishga imkon berishiga oid texnologiyalar haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

Kalit so'zlar Yozuv, nutq, tasviriy faoliyat, fonematik idrok, savod o'rgatish davri, og'zaki nutq, fonematik idrok, bilish jarayonlar, qobiliyat.

Hozirgi kunda yozuvga alohida mazmun, murakkab tuzilishi va uni shakllanishining muhim yo'llarini xarakterlovchi murakkab psixofiziologik jarayon sifatida qaralmoqda. Kichik maktabgacha yoshdagi nutqi rivojlanmagan bolalar yozma nutqini funktsional negizini ta'lim-tarbiya jarayonida kuzatish, tadqiq etish va nutq me'yorda rivojlangan bolalar bilan taqqoslash mazkur guruhga kiruvchi bolalarning o'qish va yozuv malakalarinin funktsional negizini shakllantirish bo'yicha metodik ish tizimini yaratishga imkonini yaratdi.

Kuzatishlar asosida biz tavsiya etadigan mazkur ish tizimi maktabgacha yoshdagi nutqi rivojlanmagan bolalarni ta'lim-tarbiya tizimiga kiritilishi hamda uning bir yo'nalishiga aylanishi kelajakda yozma nutq nuqsonlarini oldini olish va yozma nutqni tez, samarali o'zlashtirishga imkon beradi.

Yozma nutqning funktsional negizini yaratishga yo'naltirilgan ish tizimi bolani savodga o'rgatish ishlaridan avval amalga oshirilishi hamda quyidagi yo'nalishda olib boriladi:

1.Og'zaki nutqni rivojlantirish. Yozma nutqni egallash uchun zarur nutqiy malaka va funktsiyalarni rivojlantirish. U og'zaki nutq malakalarini butun kompleksini rivojlantirishni qamrab olgan:

A) **Nutqni fonetik-fonematik tomonini anglashni shakllantirish.** O'yin va didaktik mashqlar yordamida bolaga uni o'rab turgan nutqiy muxitni faqatgina mazmuniy fragmentlarga emas, alohida tovush komplekslari: so'zlar, bo'g'inlar va tovushlarga ajratish mumkinligini tushuntirish. "So'zning ohirini top", "Qaysi so'z yashiringan?", "Qaysi tovush tushib qolgan?" kabi o'yinlar qo'llash mumkin. Paronim

so'zlarga rasmlar topish orqali esa bolalar alohida tovushlarni so'z ma'nosidagi o'rnini anglashadi;

B) **Eshituv diqqatini rivojlantirish.** Bu maqsadda "Kimning ovozi?", "Nima chalyapman", "Kimligini tinglab top" kabi o'yinlar qo'llanadi. Bolalar ohangni mazmuniy ahamiyatini tushunishga o'rgatishadi.

V) **Fonematik idrokni takomillashtirish va to'g'ri fonematik tasavvurlarni shakllantirish.** Bu yo'nalishda bolalarda to'g'ri talaffuzni shakllantirish bilan bir vaqtda eshutilishi va talaffuziga ko'ra bir-biriga o'xshash tovushlarni alohida va so'zlarni tarkibida ajratish va farqlashga o'rgatiladi. SHu bilan birga turli grammatik shaklda berilgan so'zlar ustida ish olib boriladi. Masalan, bolaga kitob va kitoblar chizilgan rasmlarni, kiz qalamni chizayotgan va qalam bilan chizayotgan rasmlarni ko'rsatish so'raladi.

G) **Fonematik analiz va sintez malakalarini shakllantirish.**

2. **Qo'ruv-fazoviy idrokni va ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlantirish.** Tadqiqotimiz asosida ko'rgazmali-obrazli va konstruktiv tafakkurni yuqori darajada rivojlantirish yozma nutq buzilishlarini oldini olishda katta ahamiyatga egaligini aniqladik. Mazkur bo'lim quyidagi asosiy yo'nalishlarga ega:

A) **Pertseptiv va konstruktiv topshiriqlarni bajarishda fazoviy mo'ljal olish bosqichi ustida ishlash.** Bolani tasvir va kurilmalarni tartib bilan va izchil ravishda tahlili etishga o'rgatiladi. Tasvir yoki shaklni asosiy, birlamchi elementlari, mashg'ulotlarning dastlabki bosqichida shablonlar yordamida predmetli xatti-harakatlar tarzida, keyingi mashg'ulotlarda esa tafakkur asosidagina ajratish va farqlashga o'rgatiladi.

B) **Sensor etalonlar bilan ishlash va unga mos so'zli tushunchalarni egallash:** asosiy geometrik shakllar, o'lchamlar, fazodagi joylashuvini bildiruvchi tushunchalar va h.z. Buning uchun "Ta'rifi asosida top" o'yini, "Rassom nima chizganini top", turli geometrik shakllar yig'indisidan iborat tuzilmani eslab qolishga qaratilgan o'yinlar qo'llanadi.

V) **Ko'ruv obrazlarini tafakkur asosida joydan joyga ko'chirish va transformatsiyalash malakalarini rivojlantirish.**

3. **Tasviriy-grafik qobiliyatlarni shakllantirish.** Korreksion ish ikki yo'nalishda olib boriladi. Birinchi yo'nalish grafomotor malakalarni rivojlantirishga va ikkinchi yo'nalish grafik simvolizatsiyani o'zlashtirishga qaratiladi. Korreksion ish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

A) geometrik shakllarni kontur bo'yicha shtrixlash va chizish, namunadan ko'chirish;

B) Tugatilmagan rasmlarni yakunlash;

V) "Kim diqqatliroq?" o'yini – naturadan chizishda imkon boricha ko'proq detallarni tasvirlash;

G) Rasmdagi yetishmaydigan detallarni chizish({B}dan farqli ravishda rasmlarni faqat ba'zi detallari yetishmaydi);

D) SHakl yoki bir necha shakllar yig'indisini eslab qolib chizish;

E) Harf va so'zlarni shablonlar yordamida yozish. TSelluloid yoki pleksiglasdan yozma shrift uchun shablonlar tayyorlanadi va bola ular orqali avtomatlashgan kinemalar, ya'ni harflarni tasvirlash uchun malakaviy xatti-harakatlar ustida ishlaydi.

4. Bolaning suktessiv qobiliyatlarini rivojlantirish. Hodisalarning vaqtinchalik ketma-ketligini analiz qilish, eslab qolish va qayta ifodalashni rivojlantiruvchi mashqlar barcha (ko'ruv, eshituv, harakat va kinestetik) analizatorlar faoliyatiga yo'naltirilishi joiz. Bu maqsadda quyidagi mashqlarni qo'llash mumkin:

A) xarakatlar seriyasini eslab qolib takrorlash ("musht-qovurg'a-kaft" va h.z.)

B) Ritmlarni eshituv va grafik namuna asosida qayta ifodalash. Mazkur topshiriqlarni "Telegrafist" o'yini ko'rinishida amalga oshirish mumkin.

V) Raqamlar, tovushlar, harflar, so'zlar qatorini eslab qolib qayta ifodalash. Topshiriq qayta ifodalanuvchi qatorlarni uzaytirish yoki namunani teskari ketma-ketlikda qayta ifodalash bilan murakkablashtiriladi.

G) hafta kunlari, oylar, yil fasllari va h.z.larni to'g'ri, teskari yoki ixtiyoriy ketma-ketlikda avtomatlashgan holda qayta ifodalash ustida ish olib borish;

D) "Taklif etilga tartiblash printsipli asosida qatorni davom ettirish" mashqi;

E) ketma-ketligi bo'yicha farq qiluvchi shakllar seriyasini eslab qolish;

J) "Nima o'zgardi?" o'yini – bola test materiali (shakllar seriyasini ketma-ketligi)ni eslab qolgandan so'ng o'qituvchi mazkur ketma-ketlikni bir yoki bir necha o'zgarishlar bilan ko'rsatib, nima o'zgarganini so'raydi.

5. Diqqatni jamlash, taqsimlash va ko'chirish qobiliyatlarini rivojlantirish. Mazkur yo'nalishdagi korreksion ishda eshituv modalligiga ham, ko'ruv modalligiga ham qaratilgan mashqlarni kiritish va asosiy e'tiborni diqqatni ixtiyoriy nazorat qilishni rivojlantirishga qaratish joiz. T. Nehreschild i H.-J. Kossow (1985) bu maqsadda quyidagi mashqlarni taklif etishadi:

A) Diqqat turg'unligini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar – ko'zmunchoqlarni uzoq muddat saralash va ipga terish, "Kim kim bilan telefonda gaplashyapti?", "Kim kimnikiga mehmonga ketyapti?" kabi o'yinlar.

B) Diqqatni ko'chirish ko'nikmasi - mualliflarning fikricha "birgalikdagi sanash" yordamida samarali rivojlantiriladi. Bunda rasmdagi boshqa predmetlar bilan e'tibor bermagan holda undagi ikki xil tasvir (belgi)lar miqdorini aniqlash talab etiladi;

V) Diqqatni ixtiyoriy ko'chirish qobiliyatini rivojlantirish maqsadida quyidagi topshiriqlardan foydalaniladi: hisob raqamlari bilan aralashtirilgan alfavitni o'qish (a, 1, b, 2, v, 3 va h.z.), qizil va qori raqamli SHulte jadvallaridan 1 dan 25 gacha bo'lgan bir xil (qizil yoki qora) rangdagi raqamlarni topish va b.q.;

G) Reaksiyaning tezligi va aniqligini rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida o'quvchiga bir qator shakllar ko'rsatilib, ularning har biriga shartli raqam beriladi. O'quvchi ularni eslab qolgandan so'ng ekranda tez paydo bo'luvchi shakllarni daftariga ularga berilgan shartli raqamlar ko'rinishida yozib olishi joiz.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yuqoridagi barcha metod va usullar grafik faoliyatdagi ko'rsatilgan funktsional komponentlarni paydo bo'lish birligini yozuv va rasm chizishda o'rnatish, yozuv buzilishini tasviriyl vositalarni qo'llash orqali bartaraf etish bo'yicha korreksion ish usullari yo'nalish mazmuni va usullarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shukhratovich, Makhmudov Khurshid. "Importance of didactic games in speech development of mentally retarded children." Asian Journal of Multidimensional Research 11.11 (2022): 20-23.

2. Shuxratovich, Maxmudov Xurshid. "Socio-Psychological Of Children With Speech Impairment Adaptation Features." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 243-248.
3. Махмудова, Мадинахон Махмудов Хуршид. "Нутқи тўлиқ ривожланмаган мактабгача ёшдаги болаларни ёзма нутққа тайёргарлигини шакллантириш муаммолари." Confrencea 4.04 (2023): 179-186.
4. Махмудова, Мадинахон Махмудов Хуршид. "Мактабгача тарбия ёшидаги болаларни ёзиш ва ўқиш кўникмаларини эгаллашга тайёрлаш." Confrencea 4.04 (2023): 187-192.
5. Shukhratovich, Makhmudov Khurshid, and Isodullayeva Iqboloy. "PHYSIOLOGICAL FOUNDATIONS OF SPEECH ACTIVITY." Open Access Repository 4.3 (2023): 765-771.
6. Shukhratovich, Makhmudov Khurshid, and Tahirova Mahliyo. "Ways To Increase The Vocabulary Of Mentally Retarded Children Of Preschool Age Based On Plot Role-Playing Games." International Journal of Early Childhood Special Education 15.2 (2023).
7. Shukhratovich, Makhmudov Khurshid. "IMPORTANT ASPECTS OF COLLABORATIVE ACTIVITIES IN THE PROCESS OF INCLUSIVE EDUCATION." (2023).
8. Shukhratovich, Makhmudov Khurshid, and Khomidova Shahribonu. "PEDAGOGICAL TASKS OF SPEECH THERAPIST AND PARENT COOPERATION IN ELIMINATING SPEECH DEFECTS." American Journal of Interdisciplinary Research and Development 16 (2023): 38-41.
9. Sobirkhonovna, Mahmudova Madinakhon. "Professional Training Of Future Speakers In The Period Of Independent Study." Archive of Conferences. Vol. 10. No. 1. 2020.
10. Maxmudova, Madinaxon, and Babayeva Azizabonu. "Ruhiy Rivojlanishi Sustlashgan Bolalar Lug'atining Psixik Rivojlanish Bilan Bog'liqligi." Conference Zone. 2022.
11. Kodirova, Feruzakhon Usmanovna, S. Z. Matupaeva, and Feruza Rakhimovna Teshaboeva. "Methodical cluster-an innovative mechanism to increase the efficiency of general secondary and inclusive education." (2020).
12. Mahmudova, Madina Sobirkhonovna. "The Role Of Independent Education In The Formation Of Professional Competencies Of Prospective Speech Therapists." Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology 2.10 (2020): 358-363.
13. Feruza, Teshabaeva, Mahmudova Madina, and Yuldasheva Dilbar. "The essence of inclusive education in developed countries." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 8.1 (2020).
14. Sobirkhonovna, Mahmudova Madinahon. "An Innovative Mechanisms to Increase the Effectiveness of Independent Education of Future Defectologists." International Journal on Integrated Education 3.11 (2020): 210-211.

15. Maxmudova, Madinaxon, and Axmedova Vaziraxon. "Tayanch–Harakati A’zolari Falajlangan Bolalar Lug’atini Rivojlantirish Yo’llari." Conference Zone. 2022.
16. Махмудова, Мадинахон Махмудов Хуршид. "Мактабгача тарбия ёшидаги болаларни ёзиш ва ўқиш кўникмаларини эгаллашга тайёрлаш." Confrencea 4.04 (2023): 187-192.
17. Maxmudova, Madinaxon. "Technologies for the development of professional competencies of students of Higher Education." INTERNATIONAL JOUR
18. Maxmudova, M., and O. Zikirova. "Speech therapist and family collaboration in overcoming severe speech deficits." European Scholar Journal 2.10 (2021): 72-73.
19. Sobirxonovna, Maxmudova Madinaxon. "The genealogy of thoughts of the manifestations of ancient antiquity in the study of the speech deficit of dislaliya." Confrencea 3.03 (2023): 17-20.
20. Sobirkhanovna, Makhmudova Madinakhan, and Akhmedova Vazirakhan. "EFFECTIVE ORGANIZATION OF CORRECTIONAL-LOGOPEDIC WORK IN CHILDREN WITH CEREBRAL PALSY." Open Access Repository 4.3 (2023): 134-141.
21. Махмудова, Мадинахон Махмудов Хуршид. "Нутқи тўлиқ ривожланмаган мактабгача ёшдаги болаларни ёзма нутққа тайёргарлигини шакллантириш муаммолари." Confrencea 4.04 (2023): 179-186.
22. Sobirxonovna, Maxmudova Madinaxon. "GENEALOGY OF SCHOLARS AFTER THE 15TH CENTURY IN THE STUDY OF SPEECH DEFICIT." Confrencea 3.03 (2023): 21-25.
23. Sobirkhonovna, Makhmudova Madinakhan, and Goyipova Nodira. "Theoretical aspects of the development of academic mobility of future speech therapists in dual education." Asian Journal of Multidimensional Research 11.12 (2022): 148-154.
24. Sobirkhonovna, Mahmudova Madina. "THE IMPORTANCE OF THE USE OF PROJECT TECHNOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF STUDENTS IN THE PROCESS OF INDEPENDENT LEARNING." EURASIAN EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION 29 (2020).
25. Sobirkhonovna, Mahmudova Madina. "DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF FUTURE SPEECH THERAPISTS IN THE PROCESS OF STUDYING INDEPENDENTLY." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences 8.8 (2020): 155-158.